

TASDIQLAYMAN

«Find Work New Service» MChJ direktori

_____ A.Sh.Mirzayev

« ____ » _____ 2025 y.

«Find Work New Service» MChJ (Kornet.uz platformasi) tomonidan sovrinli o'yinlar (aksiyalar) tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida N I Z O M

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Nizom Kornet.uz internet-platformasi doirasida «Find Work New Service» MChJ (keyingi o'rinlarda — Tashkilotchi) tomonidan o'tkaziladigan yutuqli aksiyalarni rejalashtirish, tashkil etish, o'tkazish va yakuniy natijalarini aniqlashning yagona tartibini belgilaydi.

1.2. Aksiyalarni o'tkazishdan maqsad:

- foydalanuvchilar faolligini oshirish;
- Kornet.uz brendini targ'ib qilish va servisning ommabopligini oshirish;
- doimiy mijozlar va hamkorlarni rag'batlantirish;
- auditoriyaning ishonchi va faolligini kuchaytirish.

1.3. Ushbu Nizom ichki me'yoriy hujjat hisoblanadi va Aksiyalarni tayyorlash va o'tkazishda ishtirok etuvchi barcha xodimlar tomonidan majburiy bajarilishi shart.

1.4. Aksiyalar lotereya, qimor o'yini yoki litsenziya talab etuvchi musobaqa hisoblanmaydi va bepul asosda o'tkaziladi.

1.5. Aksiyalar haqidagi ma'lumotlar quyida joylashtiriladi:

- rasmiy veb-sayt: www.kornet.uz;
- Kornet.uz mobil ilovasida;
- rasmiy ijtimoiy tarmoq sahifalarida (YouTube, Telegram, TikTok, Instagram, Facebook).

2. Asosiy atamalar va ta'riflar

Kornet.uz platformasi — «Find Work New Service» MChJga tegishli bo'lgan internet-servis va mobil ilova bo'lib, foydalanuvchilarga e'lonlar, vazifalar (topshiriqlar), vakansiyalar va xizmat takliflarini joylashtirish, shuningdek, sovrinli o'yinlar, aksiyalar va bonus dasturlarida ishtirok etish imkonini beradi.

Sovrinli o'yin — Tashkilotchi tomonidan foydalanuvchilar o'rtasida o'tkaziladigan marketing tadbiri bo'lib, belgilangan shartlarga amal qilgan holda g'oliblarni aniqlash va ularga sovrinlar topshirishni nazarda tutadi.

Aksiya — Kornet.uz servisini targ'ib qilish va foydalanuvchilar faolligini oshirishga qaratilgan marketing tadbirlari majmuasi.

Ishtirokchi — Kornet.uz platformasida ro'yxatdan o'tgan, ushbu Nizom talablariga javob beradigan va aksiya yoki sovrinli o'yinda ishtirok etish shartlarini bajaradigan jismoniy shaxs. Shuningdek, yuridik shaxsning vakolatli vakillari (ishonchnoma yoki boshqa hujjatlar asosida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan shaxs).

Sovrinli o'yin (aksiya) vazifalari — ishtirokchi sovrinli o'yinda ishtirok etish, tangalar (KorCoin)ga yoki boshqa imtiyozlarga ega bo'lish uchun bajarishi shart yoki ixtiyoriy bo'lgan harakatlar.

Sovrinli o'yin (aksiya)da ishtirok etish vazifalarining turlari:

1) Majburiy vazifalar — sovrinli o'yinda ishtirok etish uchun zarur bo'lgan asosiy harakatlar. Masalan:

- Kornet.uz platformasida ro'yxatdan o'tish;
- telefon raqamini tasdiqlash;
- shaxsni tasdiqlash (ID-tekshiruv);
- profilni to'ldirish (ism, shahar, faoliyat yo'nalishi).

2) Bir marotabalik vazifalar — bir marta bajariladigan harakatlar. Masalan:

- elektron pochta tasdiqlash;
- buyurtmaga sharh (javob) qoldirish;
- e'lon/topshiriq/vakansiya joylashtirish;
- Kornet.uz ijtimoiy tarmoqlariga obuna bo'lish.

3) Uzoq muddatli vazifalar — muntazam ravishda bajariladigan harakatlar. Masalan:

- buyurtmani bajarish va yakunlash;
- buyurtma uchun to'lovni yopish;
- referal orqali yangi foydalanuvchi taklif qilish;
- ijobiy fikr olish;

- fikr (otzyv) qoldirish;
 - Start, Standard, Premium paketlarini ulash yoki uzaytirish (monetizatsiyadan so'ng).
- 4) Bonus vazifalar** — qo'shimcha imkoniyat beruvchi faoliyatlar. Masalan:
- «Omad g'ildiragi» — kuniga bir marta;
 - «So'rovnoma o'tkazish» — oyiga bir marta.

3. Sovrinli o'yin turlari

- 3.1. Tashkilotchi quyidagi turdagi Aksiyalarni o'tkazishi mumkin:
- mavsumiy (yozgi, kuzgi, qishki, bahorgi);
 - bayram (Navro'z, Yangi yil, Mustaqillik kuni va boshqa.);
 - yillik (faollik bo'yicha umumiy yil yakunlari);
 - mavzuli (yangi funksiyalar, paketlar yoki xizmatlar ishga tushirilishi munosabati bilan).
- 3.2. Har bir Sovrinli o'yin direktor buyrug'i va tasdiqlangan qoidalar asosida o'tkaziladi.
- 3.3. Shartlar, muddatlar va sovrin jamg'armasi alohida belgilanadi.

4. Tashkil etish va tayyorgarlik shartlari

- 4.1. Barcha Sovrinli o'yin va aksiyalarning Tashkilotchisi — «Find Work New Service» MChJ.
- 4.2. Tayyorgarlik ishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:
- aksiya konsepsiyasi va mexanizmini ishlab chiqish;
 - sovrin jamg'armasi va budjetiga oydinlik kiritish;
 - mas'ul shaxsni tayinlash;
 - ishtirok qoidalari va vizual materiallarni tayyorlash;
 - direktor buyrug'i bilan tasdiqlash.
- 4.3. Mas'ul shaxs quyidagilar uchun javobgar:
- jarayonning oshkoraligi;
 - ma'lumot va natijalarni e'lon qilish;
 - sovrinlarni o'z vaqtida topshirish;
 - hisobot hujjatlarini rasmiylashtirish.

5. Sovrinli o'yin ishtirokchilari

- 5.1. Sovrinli o'yinda O'zbekiston hududida yashovchi yoki faoliyat ko'rsatuvchi, Kornet.uzda ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslar va yuridik shaxs vakillari ishtirok etishi mumkin.
- 5.2. Quyidagilar ishtirok etishiga ruxsat berilmaydi:
- «Find Work New Service» MChJ xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari;
 - sovrinli o'yinni tashkil etishda ishtirok etuvchi hamkor kompaniyalar vakillari.
- 5.3. Sovrinli o'yinda ishtirok etish orqali ishtirokchi ushbu Nizomga shartlariga va shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashiga roziligini bildiradi.

6. Sovrin jamg'armasi

- 6.1. Sovrinlar «Find Work New Service» MChJ mablag'lari hisobidan taqdim etiladi.
- 6.2. Sovrinlar turlari:
- **moddiy:** texnika, sovg'alar, kartalar, suvenirlar va boshqa buyumlar;
 - **nomoddiy:** bonuslar, promokodlar, xizmat paketlari, platforma funksiyalariga kirish;
 - **pul yutuqlari:** O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi (so'm)dagi to'lovlar.
- 6.3. Pul shaklidagi sovrinlar faqat shaxsni tasdiqlovchi hujjat va bank rekvizitlari taqdim etilganda to'lanadi. To'lov natijalar e'lon qilinganidan keyin **15 kalendar kun** ichida amalga oshiriladi.
- 6.4. Pul shaklidagi sovrinlar faqat naqdsiz shaklda o'tkaziladi. Naqd pul berilmaydi.
- 6.5. Pul shaklidagi sovrinlar bo'yicha soliqlar O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq to'lanadi. Tashkilotchi soliqlarni ushlab qolish va budjetga o'tkazish huquqiga ega.
- 6.6. Ishtirokchi aybi bilan sovrinni topshirish imkoni bo'lmasa (kerakli ma'lumotlarni taqdim etmaslik, noto'g'ri rekvizitlar, sovrinni qabul qilishni rad etish), sovrin talab qilinmagan deb hisoblanadi va Tashkilotchining tasarrufida qoladi.
- 6.7. Tashkilotchi sovrinni boshqa sovringa, ya'ni e'lon qilingan sovrinning qiymatiga teng bo'lgan boshqa muqobil sovringa almashtirish huquqiga ega.

7. G'oliblarni aniqlash

- 7.1. G'oliblar quyidagi tartibda aniqlanadi:
- tasodifiy tanlov (random) orqali;

— ishtirokchilar faolligiga ko'ra;

— aralash usulda.

7.2. Natijalar mas'ul shaxslar imzolagan Protokol bilan rasmiylashtiriladi.

7.3. G'oliblar to'g'risidagi ma'lumotlar sayt va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinadi.

8. Sovrinlarni topshirish tartibi

8.1. G'oliblar shaxsiy kabinet, e-mail yoki SMS xabarnoma orqali xabardor qilinadi.

8.2. Sovrinni olish uchun ishtirokchi (yoki yur. shaxs vakili) shaxsini va vakolatlarini tasdiqlashi shart.

8.3. Sovrinlar shaxsan topshiriladi yoki kurer/pochta orqali yetkaziladi.

8.4. Agar g'olib **14 kun** davomida Tashkilotchi bilan bog'lanmasa — sovrin bekor qilinadi.

9. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

9.1. Tashkilotchi huquqlari:

— sovrinli o'yin muddati va shartlarini o'zgartirish;

— g'olib ismi va suratini (roziligi bilan) e'lon qilish;

— mazkur Nizom shartlarini va o'yin qoidalarini buzgan ishtirokchini chetlatish.

9.2. Ishtirokchi huquqlari:

— aksiya to'g'risida ishonchli ma'lumot olish;

— ishtirok etish yoki ishtirok etishni rad etish to'g'risida mustaqil qaror qabul qilish;

— shaxsga doir ma'lumotlarini himoya qilishni talab qilish.

10. Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash

10.1. Ma'lumotlar faqat Sovrinli o'yinni o'tkazish maqsadida qayta ishlanadi.

10.2. Tashkilotchi O'zbekiston Respublikasi "Shaxsga dior ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni talablariga rioya qiladi.

10.3. Ma'lumotlar saqlash muddati — aksiya tugaganidan keyin **12 oy**.

10.4. Ishtirokchi shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash uchun bergan roziligini qaytarib olish huquqiga ega.

11. Javobgarlik

11.1. Tashkilotchi quyidagilar uchun javobgar emas:

— aloqadagi uzilishlar va texnik nosozliklar;

— ishtirokchi tomonidan noto'g'ri ma'lumot kiritilishi;

— ishtirokchining aybi bilan sovrinni topshirib bo'lmasligi.

11.2. Ishtirokchi berilgan ma'lumotlar to'g'riligi va qoidalarga rioya qilish uchun javobgar.

12. Hisobot va nazorat

12.1. Har bir Sovrinli o'yin bo'yicha quyidagilarni o'z ichiga olgan Hisobot tuziladi:

— muddatlar va bosqichlar;

— ishtirokchilar soni;

— sovrin jamg'armasi;

— natijalar va g'oliblar ro'yxati;

— sovrinlarni topshirishni tasdiqlovchi ma'lumotlar.

12.2. Ushbu Nizom ijrosi ustidan nazorat «Find Work New Service» MChJ direktori tomonidan amalga oshiriladi.

13. Yakuniy qoidalar

13.1. Ushbu Nizom direktor tomonidan tasdiqlangan paytdan boshlab kuchga kiradi.

13.2. O'zgartirish va qo'shimchalar direktor buyrug'i bilan kiritiladi.

13.3. Nizomning amal qilishi muddatsiz bo'lib, Kor.net.uz platformasida o'tkaziladigan barcha aksiyalarga tatbiq etiladi.